Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, avvalo bu sinflardagi ta'lim mazmuni kichik maktab yoshidagi bolalarning yoshlik xususiyatlari va psixologiyasi, qiziqishi, ulardagi mavjud bilim va qobiliyat hamda layoqatlariga qarab belgilanadi. Ma'lumki, bolalarda tasviriy faoliyatga, xususan rasm chizishga ishtiyoq nihoyatda erta boshlanadi. Uni 2-3 yoshlardan boshlanishi tarixdan ma'lum. Shunisi xarakterliki, bolalar o'qish va yozishdan ko'ra rasm chizishni juda yoqtiradilar. Biroq ular chizadigan rasmlarning davomiyligi juda qisqa bo'ladi, 1-2 minut, ko'pi bilan 4-5 minutda har qanday rasmni tugallab qo'yadilar. Bolalar tomonidan chizilgan rasmlar savodli bo'lmasa-da, biroq mazmunan biron-bir ko'rinishni, voqeani yoki buyumni o'z iqtidorlariga yarasha, ularning xarakterli belgilarini tasvirlay oladilar. Bo'yoqlar bilan ishlash ularga ma'lum qiyinchiliklar tug'dirishi sababli ulardan foydalanishni aytarlik xush ko'rmaydilar. Lekin turli yorqin ranglar bilan bo'yalgan buyumlar bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Rasmlari yaxshi chiqmagan holda o'z ishlaridan ixloslari tez qaytadi. Bunday sharoitda o'qituvchining bolalarga tez yordam ko'rsatishi va kayfiyatini ko'tarishga harakat qilishi foydadan holi bo'lmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy faoliyatlarining xarakterli jihatlaridan yana biri ularning chizadigan rasmlarini soddalashtirishga bo'lgan xarakteridir. Ular ayrim narsalarning oldi ko'rinishini (uy, odam, kitob, soat, portfel) ayrimlarini yon tomonidan (mashina, qayvonlar, qushlar, baliqlar, bayroqcha v.b.), yana boshqalarini ustki tomonidan (kapalak, barg, ninachi, qo'ng'iz v.b.) tasvirlaydilar. Bunga asosiy sabab bu yoshdagi bolalar hali narsalarni yorug'soya, perspektiv qisqarishi va ularning qoidalarini uncha tushunib yetmaganliklaridir. Bolalar ijodiga xos yana bir jihat bor, u ham bo'lsa tasvirlarni (buyumlarni) birlarini to'sib turgan (yoki qisman) holda tasvirlanmasligidir. Chunki bolalar narsalarni doimo butun holda idrok etadilar. Yuqorida qayd qilingan tasviriy faoliyatlarning bu xususiyatlari bolalar tafakkurining konkret, obrazli va emotsional tarzda bo'lishligi bilan bog'lanadi. Endi boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at darslarini o'tkazish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtaladigan bo'lsak avvalo uning quyidagi to'rt turi qayd qilinishi lozim: 1. Borliqni idrok etish. 2. Badiiy qurish-yasash. 3. Naturaga qarab tasvirlash (naturaga qarab rasm ishlash, naturaga qarab haykal ishlash). 4. Kompozitsion faoliyat. Borliqni idrok etish mashg'ulotlari 1-4- sinf dasturida aks etgan bo'lib, uning maqsadi bolalarni o'rab olgan borliq haqida, ulardagi narsa va hodisalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, o'lchov nisbatlari haqida tasavvur hosil qilishdir. Chunki, bolalar tevarak-atrofn, ya'ni tabiat, hayvonlar va qushlar olami, hashoratlar va baliqlar, odamlar, obi-havo, predmet va buyumlar, qurilish va transport vositalari haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lganliklari taqdiridagina ularning rasmlarini aniq-ravshan tasvirlaydilar. Borliqni idrok etish mashg'ulotlarining mazmunidan kelib chiqqan holda amaliyotda ularni o'rganishi kerak bo'lgan quyidagi yo'llar qo'llaniladi: 1. Buyumni, tabiatni o'ziga qarab kuzatish orqali o'rganish. 2. Borliq haqida o'qituvchining suhbatlari orqali o'rganish. 3. Savol-javob orqali o'rganish. 4. Borliqni rasmini chizish orqali o'rganish. 5. O'qituvchining pedagogik rasmi orqali o'rganish v.b. O'qituvchilar uchun namoyish etiladigan narsalar va tasvirlar avvalo mashg'ulot mavzusi bilan bog'liq holda bo'lib, ular o'z tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari bilan sodda, tushunarli, bolalarda his-hayajon uyg'otadigan bo'lishligi

maqsadga muvofiqdir. Eng muhimi, bunday materiallar o'quvchilarni o'ylashga majbur etadigan, bolalarni yangi tushunchalar bilan boyitadigan bo'lishligi muhim. Namoyish etiladigan narsalar, ularning tasvirlari haqidagi ma'lumotlarni bolalarga og'zaki yetkazishda ularning tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tahlil bevosita narsalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, ularning mohiyati haqida savol-javob tarzida o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Quyida borliqni idrok etish mavzusiga doir mashg'ulot ishlanmasi beriladi. Dasning mavzusi: Kuzgi tabiat manzarasini idrok etish. Darsning vazifalari: Kuzatuvchanlik, sinchkovlik, diqqat va xotirani o'stirish. Tabiatdagi go'zallikni ko'ra bilishga va qadrlay olishga o'rgatish. Kuzgi tabiat manzarasining o'ziga xos xususiyatlari va kuzgi ishlar bilan tanishtirish. Darsning jihozlanishi: Kuz fasli tasvirlangan rasm. Kuzgi ishlarga doir manzara tasviri. Tabiat qo'yniga sayohat. Uni tashkil etishning imkoni bo'lmagani taqdirda san'at asarlarining reproduksiyalaridan foydalanish mumkin. Masalan: O'.Tansiqboevning „Tog'da kuz“, Z.Inog'omovning „Kuz“, N.Karaxanning „Oltin kuz“, I.Haydarovning „Oltin kuz“, H.Basharovning „O'zbek kuzi. SHaftolilar“, G.CHernuxinning „Farzandlar va nabiralar“, Usta Mo'minning „Xirmonda“ va boshqalar. Bu asarlarning hammasi bilan o'quvchilarni tanishtirish shart emas. Ulardan ayrimlari (o'z xoxishiga ko'ra) tanlab olinadi. Darsning mazmuni: Mashg'ulot asosan ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchisi, kuzgi tabiat manzarasining xarakterli xususiyatlarini estetik idrok etish, ikkinchisi kuzgi ishlarning o'ziga xos tomonlari bilan tanishtirish. Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida o'qituvchi shunday ob'ektni tanlashi lozimki, bu ob'ekt ham kuz, ham kuzgi ishlar uchun xarakterli ko'rinishda bo'lsin. Dars o'quvchilarni maktab bog'i yoki dalaga sayohatga olib chiqish va u yerda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishtirishdan boshlanadi. Sayohat jarayonida o'qituvchi bolalar e'tiborini chiroyli kuz manzarasiga jalb etadi. Ularga kuz fasli va bu vaqtdagi o'zgarishlar haqida so'zlab beradi: "Bolalar, mana hozir kuz fasli. U niqoyatda chiroyli, chunki, kuzda havo soviy boshlaydi, natijada daraxtlarning barglari o'z rangini o'zgartiradi. Ba'zi barglar qizg'ish tusga kiradi. O't-maysalar sarg'aygan bo'ladi, qisqasi, ular oltin rangga burkanadilar. Osmonda yengil parcha-parcha bulutlar paydo bo'ladi. Ertalab kuzgi ekin va o'tlarning usti oppoq qirov bilan qoplanadi. Yerga to'kilgan daraxt barglari oyoq ostida shitiraydi. Oktyabr oyida kech pishar mevalar terib olinadi va tokdagi shirinshakar uzumlar uziladi. Yong'oq qoqiladi. Kechki kartoshka, sabzi, piyoz, lavlagi kabi savzavotlar yig'ishtirib olinadi. Bunday ishlarni amalga oshirishda o'quvchilar otaonalariga, maktab bog'ida esa maktab jamoasiga yordam beradilar. Kuzda shahar va qishloqlarda ko'chat o'tkazish oyligi boshlanadi. Bu ishlarda ham bolalar kattalar bilan bir qatorda qatnashadilar. Kuzgi yig'im-terim ishlari nihoyatda zavqlidir. Sayohat jarayonida o'qituvchi emotsional-estetik vaziyat hosil qilish maqsadida bolalarga kuz va kuzgi ishlar haqidagi she'rlardan namunalar o'qib beradi. She'r o'qib bo'lingandan so'ng, tabiatning ko'rinishi bolalar bilan birgalikda tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida kuzatilayotgan manzara yuzasidan bolalarga savollar beriladi. Bu savollar quyidagicha bo'lishi mumkin: -kuzda tabiatda qanday o'zgarishlar ro'y beradi? — qarshingizdagi manzarada qanday daraxt turlarini ko'ryapsiz? -daraxtlarning o'lchovi bir xilmi? -daraxtlarning shakli bir-biridan qanday farq qilib turibdi? — e'tibor bering, daraxt shoxlarining yo'g'onligi bir xilmi? -daraxtlarning tanasi va shox-shabbalarining tuzilishi qanday? -osmonga ham razm soling, uning rangi qanday? -osmondagi bulutlarning shakli yoki rangi qanday (bulutlar bor bo'lsa)? -o't va daraxtlarning rangida farq bormi? -tabiatni kuzatish jarayonida yaxshi taassurot qoldirgan narsa nima? Tabiatni kuzatish jarayonida bolalar ba'zi bir tabiiy materiallarni (urug'lar, barglar, mayda hashoratlar, ildizlar) kolleksiya uchun yoki tasviriy ishlar uchun yig'ishlari mumkin. Kuzatilayotgan ob'ekt yuzasidan savol-javob tugagach, o'qituvchi suhbatga yakun yasab, bolalarning javoblarini aniqlashtiradi, kamchiliklarini to'ldiradi, xatolarini tuzatadi. Agar dars sinfda o'tkaziladigan bo'lsa, o'qituvchi yuqorida nomlari qayd qilingan tasviriy san'at asarlarining reproduksiyalari, diapozitivlari, slaydlarini bolalarga ko'rsatib, sinfda o'quvchilar bilan birga tahlil qiladi. Lekin, shuni ham qayd qilish lozimki, dars sinfda qanchalik ilg'or metodlar bilan olib borilmasin, baribir u aynan tabiat qo'yniga qilingan sayohatning o'rnini bosa olmaydi. SHuning uchun o'qituvchi darsni iloji boricha tabiat qo'ynida o'tkazishga harakat qilishi lozim. Uyga bolalarni yashash joylaridagi bironta oltin rangga kirgan tabiat manzarasini kuzatish vazifa qilib topshiriladi. Badiiy qurish-yasash mashg'ulotlarini boshlang'ich sinflarda o'tkazish rejalashtirilgan. Bunday mashg'ulotlarni o'tkazish uchun bolalarga turli-tuman tabiiy va badiiy materiallar zarur bo'lganligi sababli, o'qituvchi bu masalaga o'z e'tiborini ko'proq qaratishi kerak bo'ladi. O'qituvchi barcha bolalarni bunday materiallar bilan ta'minlay olmagani taqdirda bu ishga o'quvchilarni jalb etishi zarur bo'ladi. Tabiiy va badiiy, tashlandiq materiallarni to'plash uchun sinfda maxsus joy ajratilgan

bo'lishligi, uni bolalar ishtirokida to'lg'izib turilishi kerak bo'ladi. Qurish—yasash mashg'ulotlariga xos bo'lgan bir muhim jihat shundaki, bunda o'qituvchi va bolalar amaliy ishlarning bir vaqtini o'zida bajaradilar. Ayrim mashg'ulotlarda (ko'pincha 3-4-sinflarda) amaliy ish uchun hamma tayyorgarlik ishlari tugangani va topshiriq barcha bolalar uchun tushunarli bo'lganidan so'ng asosiy ishga o'tiladi. Badiiy qurish-yasash mashg'ulotlarida o'qituvchi bolalarni faqat bir xil material yordamida ishlash bilan chegaralab qo'ymasligi lozim. Ular ham tabiiy, ham badiiy, ham tashlandiq materiallar bo'lishligi mumkin. Bunday mashg'ulotlarda o'qituvchi tabiiy va tashlandiq materiallar yordamida hashorat, qush, hayvon, odam kabilarning shaklini ko'rsatishi muhimdir. Masalan, ildizda ilon, kaltakesak, ilon baliq, yong'oq po'chog'ida toshbaqa kosasi, tuxum po'chog'ida pingvin, jo'xori o'zagida hayvon tanasi shakllarini ko'rish mumkin. Badiiy qurish-yasash ishlarida o'qituvchi materiallarning xususiyatlari (qattiq, yumshoq, mo'rt, og'ir, yengil, yaltiroq, egiluvchan v.b.), ular bilan to'g'ri munosabatda bo'lishlik haqida ham bolalarga yetarlicha va keng tushunchalar berishi kerak bo'ladi. Turli materiallardan yasalgan narsalarni to'plab, ularni bolalarga tez-tez namoyish etib turish, ularning ijodkorligini faollashtiradi, tabiiy va tashlandiq materiallardan samarali foydalanishga yo'naltiradi. Mashg'ulotlarning samaradorligi bolalarni uyda, ko'chada, sayohat vaqtida tabiiy va tashlandiq materiallarni ko'plab yig'ish hamda maktabga olib kelishga ham bog'liq. SHuning uchun o'qituvchi har bir darsda bu haqda bolalarga ko'rsatma berishi, yangi bajarilgan original qurish-yasash ishlaridan ularga ko'rsatib turishi yaxshi natijalar beradi. Quyida badiiy qurish-yasashga doir dars ishlamas beriladi. Darsning mavzusi: Hayvonlar tasvirini tabiiy materiallardan applikasiya usulida ishlash. Darsning vazifalari: O'quvchilarni tasviriy faoliyatda turli materiallardan foydalanish haqidagi tushunchalarini kengaytirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Narsalar shaklini va o'lchov nisbatlarini ko'ra bilishga o'rgatish. Applikasiya ishlash malakalarini o'stirish. Darsning jihozlanishi: Hayvonlarni tabiiy materiallardan ishlangan rasmlari, yangi yoki quritilgan barglar, bolalar kitoblariga ishlangan illyustratsiyalar. Darsning mazmuni: O'qituvchi bolalarning bilimlarini boyitish va tasavvurlarini o'stirish uchun ular ko'rgan hayvonlarini eslashni taklif etadi. O'qituvchi savol berib, bolalarni hayvonlarning nomi va tashqi qiyofasi haqidagi bilimlarini tekshirib ko'radi. Bunda u quyidagi savollarni berishi mumkin: „Bolalar, mana bu rasmlarga qarang, nimalarni ko'ryapsiz? Ularning tashqi qiyofalari bir-biriga o'xshaydimi? Ularni farq qiluvchi belgilarini aytib bering. Ulardan qaysilarini ko'rgansiz? Nomlarini ayting! Ana shu rasmdagi hayvonlarning barglardan ishlangan applikasiya tasvirini ko'rsating va xarakterli belgilariga ko'ra nomini ayting! O'z oldingizda turgan barglardan ko'rgazmali qurol tasvirlangan birorta hayvonning tashqi ko'rinishiga mos keladiganlarini tanlab oling! Ana shu barglardan nima qilish mumkin? Mana bu applikasiya qanday barglardan ishlangan“? v.b. So'ng o'qituvchi o'quvchilarning javoblaridagi kamchiliklarni to'ldirib, ko'rgazmali qurol asosida ularning tushunchalarini yanada boyitadi. Buna o'qituvchi bolalarning diqqat-e'tiborini asosan hayvonlarning tashqi ko'rinishlariga, qiyofalariga, xarakterli belgilariga, o'lchovlari va o'lchov nisbatlariga qaratishi lozim. Asosiy ishga o'tishdan avval o'qituvchi bolalarga xar xil tabiiy va badiiy materiallarni ko'rsatib, ulardan turli hayvonlar ishlash mumkinligini bildiradi. Navbatdagi ish o'quvchilarga barglardan biror hayvonning tashqi ko'rinishini amaliy tarzda ko'rsatishdir. Masalan, o'qituvchi bolalarga xo'roz tasvirini ishlab ko'rsatish uchun kattaroq bargni tanlab oladi va uni o'rtasidan qaychida qirqib, teng ikkiga bo'ladi. Bargning bir tomonidan xo'rozning bosh qismini tasvirlash uchun bir ozgina qiyib tashlaydi. So'ngra uni fon uchun tanlangan qog'ozga yopishtiradi. Keyin xo'rozning oyoqlarini mayda barglardan yasaydi. Mo'yqalam yordamida xo'rozning qora rang bilan ko'z va og'zini chizadi. Bolalar tayyorlangan barg shakllarini o'qituvchining ruhsati bilan, yopishtirishga o'tadilar. Bunda hayvon tasvirining qaysi detallari tasvirning tagida qolishi kerak bo'lsa, oldin o'sha qismi yopishtiriladi. So'ngra boshqa qismlarini yopishtirishga o'tiladi. Bunda o'qituvchi barglarni qog'ozga yopishtirishda ehtiyot bo'lishni, bargning orqa tomoniga mo'yqalamda yelim surgach, kerakli joyga qo'yib, ustidan latta bilan bosib, tekkislash va ortiqcha yelimni latta bilan astalikda artib olish kerakligini eslatadi. Dasr oxirida o'quvchilarning ishlari namoyish taxtasiga qo'yiladi va bolalar bilan birgalikda tahlil qilinadi. Uyga xo'roz tasvirini kattaroq o'lchovda, boshqa shakldagi va rangdagi barglardan tayyorlash vazifa qilib topshiriladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent: SHarq, 1997.

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi kontsepsiyasi.- Toshkent, 1995.
3. Tasviriy san'at. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi.-Toshkent: SHarq, 1999.
4. Azimova B. Naturmort tuzish va tasvirlash metodikasi.—Toshkent: O'qituvchi, 1984.
4. Bakushinskiy A.V. Xudojestvennoe tvorchestvo i vospitanie. Issledovanie i statyi.—Moskva: Sov. xudojnik, 1981. 6. Boymetov B. , Tolipov N. Maktabda tasviriy san'at to'garagi. Toshkent, 1995.
5. Bulatov S. Amaliy san'at qisqacha lug'ati.-Toshkent: HBM, 1992.
6. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati.—Toshkent: Mehnat, 1994.
7. Nabiev M. Rangshunoslik.—Toshkent; O'qituvchi, 1995. 10. Nikonorova N.M. Naglyadnye posobiya i oborudovaniya dlya zanyatij izobrazitel'no'm isskustvom.—Moskva: Prosveqenie, 1975.

II-IV- синф табиатшунослик дарсларида экологик билим ва тушунчани тарбиялашда миллий қадриятлардан фойдаланиш усуллари.

Ғаффорова Мухаббат Жовлиевна

Бойсун тумани 3-сон умумий ўрта таълим мактаби ўқитувчиси

Бошланғич синфларда «Атрофимиздаги олам», «Табиатшунослик» дарсларини замон талабларига жавоб берадиган ҳолда ўқитишда «Саҳналаштирилган», «Ўйин — мусобақа», «Тест-синов», «Саёҳат» дарсларидан фойдаланиш самарали натижа беради.

Замонавий дарс ўтиш усулларининг ўзига хос хусусиятлари: мавзуни муҳокама қилиш; эркин фикрлаш; ҳамкорликда ишлаш; жуфт бўлиб гуруҳларда ишлаш; давра суҳбатлари, баҳс-мунозаралар; ролларни ижро этиш; муаммоларни биргалиқда ҳал этиш учун фикрлаш.

Замонавий усуллар ўқувчиларнинг ўз фикрини ҳимоя қилиш кўникмасини шакллантиради, ҳамкорликда ишлашни ўргатиб, уларни ҳаётда учраб турадиган қийинчиликларни биргалиқда енгил тажрибасини сингдиради. Замонавий усуллардан фойдаланиш: синф муҳитини ўзгартиради; мавзу қандай ўқувчиларнинг ўрганилиши кераклигини белгилаб беради; ҳар бир ўқувчини фаоллаштиради.

Бугунги кунда ўқитувчи ўқитиш учун фақат зарурий ахборотларнигина танлаб олиши ва ўқувчини бевосита мустақил билим олишга ўргатмоғи лозим. Бу жараёнда ўқитувчининг педагогик маҳорати, унинг чуқур билими, инсоний одоб-ахлоқи муҳим аҳамиятга эга.

Ҳозирги кунда замонавий усуллардан фойдаланиб дарс беришда ўқитувчи моҳирликдан ижодкорликка интилиши ва бу билан таълим соҳасини ривожлантиришга ҳисса қўшмоғи талаб этилади. Замонавий педагогик технологияларни қўллашда ноанъанавий дарс усулларидан фойдаланиш орқали иқтидорли ўқувчиларни аниқлаш, бўш ўзлаштирувчи ўқувчиларда ўз кучларига ишонч ҳосил қилишлари учун имкон яратиш, синфдаги ўқувчилар ўртасида дўстлик, ўзаро ҳамкорлик туйғуларини шакллантиришга эришиш назарда тутилади.

Педагогик технология маълумотларни ўзлаштириш учун қулай шакл ва усуллардир. Демак, педагогик технология инсонга одиндан белгиланган мақсад бўйича таъсир ўтказиш фаолиятдан иборат. Муаммоли ўқитишнинг асоси — ўқувчилар билиш фаоллигини ривожлантиришдир. Муаммоли ўқитишни ўз ичига олган дарсларда ўқувчиларга янги маълумотларни ўзида сақлаган масалаларни ҳал қилиш таклиф қилинади, токи, улар билимларни ўзлаштириш ва уларни амалда мустақил қўлланиш усулларини эгаллаб олсинлар.

Муаммоли дарс қуйидаги босқичларга бўлинади: муаммоли вазият яратиш; муаммоли ифодалаш; муаммо ечимини излаш; ечимнинг тўғрилигини текшириш. Дарс шундай тарзда тузилиши керакки, унда қўйилган муаммога ўқувчиларда қизиқиш уйғонсин, билим олиш тизимидаги аҳамияти кўрсатилсин, янги билимлар олишга эҳтиёж туғилсин. Дарсларда дастурлаштирилган ўқитиш, яъни амалий ишлардан, қизиқарли топшириқлардан фойдаланиш муаммоси ўта долзарбдир.

Ҳозирги пайтда ўқувчиларнинг билим олиш фаолиятини жадаллаштириш ва уларнинг атроф-олам ва экологик билимлар билан таништириш дарсларида олган билимларини текшириш мақсадида ҳар бир ўқувчининг ўқув жараёнида мустақиллигини таъминловчи ва ўқув материални ўзлаштиришда ёрдам берувчи амалий ишлар тизими қўлланилмоқда.

Дастурлаштирилган ўқитиш босқичма-босқич билим олишни кузатишга имкон яратади, ўқув жараёнига қандай ўзгартиришлар киритиш кераклигини ҳам кўрсатади. Дастурлаштирилган ўқитиш учун қуйидагилар керак: ўқув материалининг пухта таҳлили, унинг қатъий танланиши ва мантиқий кетма-кетлик бўйича бўлиниши; ўқувчиларнинг билим олиш фаолиятини текширишдаги раҳбарлик. Дастурлаштирилган ўқитишда ўқувчиларнинг ўқув материални қўллашда фаоллиги

ва мустақиллиги ортади, ўқитиш жараёнини индивидуаллаштириш имкони пайдо бўлади, техник воситали ўқитиш кенг қўлланилади, ўқитувчи ва ўқувчи меҳнатини оқилона ташкил этишга эришилади. Назорат ишларини дастурлаштиришнинг тамойили ўқувчиларнинг оғзаки жавобларини шартли белгилар ва чизиқлар билан ёзма равишда алмашишидир. Уларнинг ортиқ жиҳати шундаки, улар қисқа вақт ичида ҳар бир ўқувчининг ўтилган мавзунини ўзлаштириш даражасини аниқлай олади.

Тажриба атроф-олам ва табиат билан танишиш дарсларида билим олиш фаолиятини фаоллаштириш мақсадида дастурлаштирилган ўқитиш усулларидадан фойдаланишнинг афзалликларини кўрсатади. Афзаллиги шундаки, ўқув материални ўзлаштириш даражасини ўқувчиларнинг ўзлари шу дарс мобайнида текширишлари мумкин. Бошланғич синфларда дастурлаштирилган ўқитишда тезис туридаги тарқатма топшириқлар, рақамлар, тарқатма тестлар, график топшириқлардан фойдаланиш мумкин.

График топшириқларни бажараётганда ўқувчиларга «-» нотўғри жавоб, «^» - тўғри жавоб эканлигини тушунтириш лозим. Ўқитувчида эса график усулдаги жавобларни тезда аниқлашга мослаштирилган асбоб бўлиши керак. Масалан:

21-март — Наврўз байрами.

1-октябр — Устоз ва мураббийлар куни.

1-сентябр — Мустақиллик байрами.

8-декабр — Ўзбекистон Республикаси Конституцияси куни.

Музёраҳ усули. Бу усулни биринчи дарс ёки янги бўлим бошлаш

олдидан ўтказиш мақсадга мувофиқ. Ўқитувчи навбатдаги ўтиладиган бўлим юзасидан қисқача маълумот беради. Масалан: «Ўлкамизда куз» бўлимида ўқувчи йил фасллари, пахта терими, ижтимоий фойдали меҳнат, кузги ўсимликлар, ҳашаротлар ҳаёти ҳақида умумий тушунчалар бериб ўтади. Бу ҳақда ўқувчилар ҳам ўз фикрларини баён этадилар.

Менинг исми Шухрат. Менга куз фасли ёқади. Чунки барча мевалар

пишади. «Ҳосил байрами» қиламиз, ота-онамга қовун-тарвуз йиғишда ёрдам бераман. Мен катта бўлганимда жуда чиройли боғ яратаман. Боғимда ширин-шакар мевали дарахтлар бўлади.

Менинг исми Комила. Мен куз фаслини яхши кўраман. Чунки дарахт барглари чиройли рангда товланади. Далаларда оппоқ пахталар очилади. Пахтадан чиройли ёстиқчалар тикиш мумкин. Мен келажакда тикувчи бўлмоқчиман. Шу тарзда ҳар бир ўқувчи ўзи ҳамда табиатга дахлдорлик ҳақида гапирадилар. Бу усул ўқувчиларни мустақил фикр юритишга, оғзаки нутқни ўстириш кўникмаларини ривожлантиришга ёрдам беради.

«Сўз топ» ўйини. Бу методдан дарснинг ҳамма қисмларида фойдаланиш мумкин. Ўқитувчи қушлар, ҳайвонлар, мева, сабзавотлар ҳақида бир сўз айтади, ўқувчилар давом эттирадилар. Ўқитувчи бошлаган сўз қайси ҳарф билан тугаса, ўқувчи шу ҳарфдан бошланган сўзни айтиши керак.

Масалан: тулки — илон — ниначи — ит — типратикан — нор туя — ялқов; (панда) — айиқ — қарға — ари ва ҳоказо. Бу усул ўқувчиларни тезкорлик билан фикр юритиб, жавоб беришга ҳамда хотирасини мустаҳкамлашга ёрдам беради.

«Кластер» усули. Бу усул ўқувчига берилган мавзу бўйича эркин ўйлаш ва фикрларни бемалол баён этиш учун шароит яратади. Ўқувчи нимани ўйлаган бўлса, шуни айтади ва ёзади. Ёзилган фикрлар тўғри ёки нотўғри бўлишидан қатъий назар, муҳокама қилинмайди ва белгиланган вақтгача давом этади. Бу эса синфнинг ҳар бир ўқувчи томонидан илгари суриладиган ғояларни уйғунлаштириш ҳамда улар ўртасидаги алоқаларни топа олиш имкониятини яратади. «Кластер» усули янги мавзунини бошлашдан аввал ўқувчинини дарсга қизиқтириб, шу мавзу бўйича аввал эгаллаган билимларини аниқлаш мақсадида ҳамда ўтилган мавзунини мустаҳкамлаш учун ўтказилади. «Мозаика» — яъни майда бўлақлардан яхлит кўринишни ҳосил қилиш.

Бунда қушлар, ҳайвонлар, дарахтлар, мевалар расмлари бўлакларга бўлиниб, ҳар бир гуруҳга алоҳида тарқатилади. Гуруҳ қатнашчилари бўлакчаларни бир бутун кўринишга келтирадилар. Гуруҳ сардорлари чиқиб, яхлит ҳолга келган ҳайвон, мева ёки дарахт ҳақида гапириб беради.

«Тўхтаб ўқиш» усули. Ўқитувчи матн билан таништириш жараёнида бир неча маротаба тўхтаб ўқувчиларга саволлар билан мурожаат қилади. Саволлар айнан матнга тегишли бўлиши зарур. Ёки ўқувчи матн ўқиш жараёнида тўхтатилиб, нима ҳақда ўқиганлиги сўралади. Бу усул орқали ўқувчиларнинг диққати жамланади, мустақил фикрлаш кўникмалари шаклланади. Занжир" усули. Бу усул шеър, топишмоқ, мақоллар берилган дарсларда қўлланилиши мақсадга мувофиқдир. Ўқувчилар тартиб билан кетма-кет берилган шеър мисраси ёки топишмоқ қаторини айтадилар. Бу усулни қўллаганда ўқувчи уялиб қолмаслик учун берилган шеър, мақол, топишмоқни ёд олишга мажбур бўладилар.

Хулоса урнида шуни таъкидлаш керакки. Бошланғич таълим босқичида ўқувчиларга табиатшунослик фанидан билим беришда, кўникма ва малакаларни шакллантиришда ана шундай хилма-хил замонавий усуллардан фойдаланиш юқори натижа беради. Айниқса, дарсларда педагогик технологияларни қўллаб, интерфаол усулларда ташкил этиш ўқитувчидан кўп меҳнат талаб қилсада, ўқувчиларни аниқ, тез, лўнда жавоб бериш ҳамда мустақил фикрлаш қобилиятини ривожлантириб, ижодий фаолиятга йўналтиради. Бу дарс самарадорлигини таъминлашга хизмат қилади.

Адабиётлар руйхати

1. Эргашев А.Умумий экология.-Т.: «Ўзбекистон», 2003 йил
2. 1-синф «Атрофимиздаги олам», А.Г.Григорянс, 10-нашр Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, Тошкент-2013 йил.
3. 2-синф «Атрофимиздаги олам», Р.Ғуломов, Ш.Мирзахматова, 3-нашр Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, Тошкент-2012 йил.
4. 3-синф «Табиатшунослик», А.Баҳромов, 3-нашр Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, Тошкент-2012 йил.
5. 4-синф «Табиатшунослик», А.Баҳромов, 2-нашр Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, Тошкент-2013 йил.
6. www.pedagog.uz.
7. www.ziyounet.

Теоретические аспекты использования логических задач на уроках математики в начальной школе

Обулова Феруза Бозоровна

Преподаватель школы № 5 Сариасийского района

Жураева Гулнора Сафаровна

Преподаватель школы № 12 города Термез,

Жумаева Нигора Эркин кизи

Преподаватель школы № Джаркурганского района,

Хафизова Кундуз Хурсановна

Преподаватель школы № 59 Алтынсайского района

Тиловов Панжи Дилмуродович

Преподаватель школы № 33 Шерабадского района

В последнее время у нас и за рубежом часто обсуждается вопрос о недостатках традиционных программ преподавания математики в школе. Эти программы не содержат основных принципов и понятий современной математической науки, не обеспечивают должного развития математического мышления учащихся, не обладают преемственностью и цельностью по отношению к начальной, средней и высшей школе.

Во многих странах и в международных организациях ведется работа по усовершенствованию учебных программ. Выдвигаются различные предложения о путях рационального изложения современных математических понятий в школьных курсах (в основном для средней школы).

Построение математики как целостного учебного предмета — весьма сложная задача, требующая приложения совместных усилий педагогов и математиков, психологов и логиков. Важным моментом решения этой общей задачи является выделение понятий, которые должны вводиться в начальном курсе изучения математики в школе. Эти понятия составляют фундамент для построения всего учебного предмета. От исходных понятий, усвоенных детьми, во многом зависит общая ориентировка в математической действительности, что в свою очередь существенно влияет на последующее продвижение в этой области знания.

Многие трудности усвоения математики в начальной и средней школе, представляется, проистекают, во-первых, из-за несоответствия знаний, усваиваемых учащимися, тем понятиям, которые действительно конституируют математические построения, во-вторых, из-за неверной последовательности введения общематематических понятий в школьные курсы.

В последнее время при модернизации программ особое значение придается подведению теоретико-множественного фундамента под школьный курс (эта тенденция отчетливо проявляется и у нас, и за рубежом). Реализация этой тенденции в преподавании (особенно в начальных классах) неизбежно поставит ряд трудных вопросов перед детской и педагогической психологией и перед дидактикой, ибо сейчас почти нет исследований, раскрывающих особенности усвоения ребенком смысла понятия множества (в отличие от усвоения счета и числа, которое исследовалось весьма многосторонне).

В недрах самой математики сейчас существенно переоценивается понятие о ее предмете, об исходных и всеобщих его признаках (работы Н.Бурбаки). Это обстоятельство тесно связано с определением природы самой математической абстракции, способов ее выведения, т.е. с логической стороной проблемы, которую нельзя не учитывать при создании учебного предмета.

С поступлением ребенка в школу в его жизни происходят существенные изменения, коренным

образом меняется социальная ситуация развития, формируется учебная деятельность, которая является для него ведущей. На основе учебной деятельности развиваются основные психологические новообразования младшего школьного возраста. Обучение выдвигает мышление в центр сознания ребенка. Тем самым мышление становится доминирующей функцией.

Мыслительная деятельность людей совершается при помощи мыслительных операций: сравнения, анализа, синтеза, абстракции, обобщения и конкретизации.

Сравнение — это сопоставление предметов и явлений с целью найти сходство и различие между ними.

Анализ — это мысленное расчленение предмета или явления на образующие его части, выделение в нем отдельных частей, признаков и свойств.

Синтез — это мысленное соединение отдельных элементов, частей и признаков в единое целое.

Анализ и синтез неразрывно связаны, находятся в единстве друг с другом в процессе познания. Анализ и синтез — важнейшие мыслительные операции.

Абстракция — это мысленное выделение существенных свойств и признаков предметов или явлений при одновременном отвлечении от несущественных. Абстракция лежит в основе обобщения.

Обобщение — мысленное объединение предметов и явлений в группы по тем общим и существенным признакам, которые выделяются в процессе абстрагирования. Процессам абстрагирования и обобщения противоположен процесс конкретизации.

Конкретизация — мыслительный переход от общего к единичному, которое соответствует этому общему. В учебной деятельности конкретизировать — значит привести пример.

Мышление ребенка дошкольного возраста наглядно-образное, предмет его мысли — предметы и явления, которые он воспринимает или представляет. Навыки анализа у него элементарны, в содержание обобщений и понятий входят лишь внешние и часто несущественные признаки.

С началом обучения в школе у ребенка не только расширяется круг представлений и понятий, но и сами представления и понятия становятся более полными и точными.

Форма обобщающей деятельности школьников на разной ступени обучения не остается постоянной. Вначале она строится обычно на внешней аналогии, затем основывается на классификации признаков, относящихся к внешним свойствам и качествам предметов, и, наконец, учащиеся переходят к систематизации существенных признаков.

В процессе обучения в школе совершенствуется и способность школьников формулировать суждения и производить умозаключения. Суждения школьников развиваются от простых форм к сложным постепенно, по мере овладения знаниями. Первоклассник в большинстве случаев судит о том или ином факте односторонне, опираясь на единичный внешний признак или свой ограниченный опыт. Его суждения, как правило, выражаются в категорической утвердительной форме. Высказывать предположения, выразить и, тем более, оценивать вероятность, возможность наличия того или иного признака, той или иной причины ребенок еще не может.

Умение рассуждать, обосновывать и доказывать то или иное положение более или менее уверенно и правильно тоже приходит постепенно и в результате специальной организации учебной деятельности.

Развитие мышления, совершенствование умственных операций, способности рассуждать прямым образом зависят от методов обучения. Умение мыслить логически, выполнять умозаключения без наглядной опоры, сопоставлять суждения по определенным правилам — необходимое условие успешного усвоения учебного материала. Широкие возможности в этом плане дает решение логических задач.

Список используемой литературы

1. Алихонов С. Математика ўқитиш методикаси.Т.: Ўқитувчи,2001.
2. Ахмедов М., Абдурахмонова Н.,Жумаев М. Математика: умумий таълим мактабларининг 1-синф учун дарслик/ 3-нашри.-Т.: «Турон-иқбол», 2009.
3. Бабкина Н.В. Нетрадиционный курс «Развивающие игры с элементами логики» для первых классов начальной школы. // Психологическое обозрение. 1996. № 2 (3), с. 47-52.
4. Зайцев Т.Г. Теоретические основы обучения решению задач в начальной школе. — М.: Педагогика, 1983.
5. Зак А.З. 600 игровых задач для развития логического мышления детей. Ярославль: «Академия развития», 1998.
6. Зак А.З. Развитие умственных способностей младших школьников. М.: Просвещение, Владос, 1994.
7. Липина И. Развитие логического мышления на уроках математики // Начальная школа. — 1999. — № 8. С. 37-39.

Boshlang'ich sinflarida matematika o'qitishni zamonaviy tarzda amalga oshirish imkoniyatlari

Turdikulova Maxbuba Xudoyqulovna
Muzrabot tumani 31-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
o'qituvchisi,

Xidirova Oyjamol Normurodovna
Denov tumani
54-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
o'qituvchisi

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikadan samarali ta'lim berilishi uchun o'qituvchi boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini egallab, chuqur o'zlashtirib olmog'i lozim.

Respublikamizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab jamiyatni isloh qilish va yangilash jarayonining eng muhim bug'ini jamiyatdagi demokratik o'zgarishlarning, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning, respublikaning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining zarur va majburiy sharti sifatida ta'lim sohasini isloh qilish siyosati izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodga uzluksiz ta'lim berish va uni tarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona ta'lim tizimi hisoblanadi. Ta'lim tizimining har bir bo'g'ini alohida o'ringa ega.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi talablarida “ta'lim tarbiya jarayonini shakllantirish ta'lim mazmunini aniqlash, ta'lim tarbiya jarayonini amalga oshirishning didaktik qonuniyatlari va prinsiplarini ishlab chiqish, davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish, o'quv dasturlari, darsliklarning yangi avlodi, o'quv metodik majmualar yaratish” vazifasini hal qilish takidlab o'tilgan.

Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi, Shu bilan birga odatda, ular bir qiymatli yechimga ega emas. O'qituvchi darsda yuzaga kelgan metodik masalaning mazkur o'quv vaziyati uchun eng yaroqli yechimini tez topa olishi uchun bu soxada yetarlicha keng tayyorgarlikka ega bo'lishi talab etiladi.

Boshlang'ich ta'lim metodikasi o'qitish vositasi sifatida mavjud didaktik o'yinlar mantiq ilmi va matematik nuqtai nazaridan mazmunan yetarli emasligi tufayli didaktik o'yinlardan foydalaniladi va o'rganilgan materialni faqat mustaxkamlash vositasi sifatida foydalaniladi.

Matematika boshlang'ich ta'lim metodikasining predmeti quyidagilardan iborat:

1. Matematika o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadni aniqlab asoslash (nima uchun matematika o'qitiladi, o'rgatiladi)

2. Matematika o'qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (nimani o'rgatish) bir tizimga keltirilgan bilimlar darajasini o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladigan qilib qanday taqsimlansa, fan asoslarini o'rganishda izchillik ta'minlanadi, o'quv ishlariga o'quv mashg'ulotlari beradigan yuklama bartaraf qilinadi, ta'lim mazmuni o'quvchilarning aniq bilim olish imkoniyatlariga mos keladi.

3. O'qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish (qanday o'qitish kerak) ya'ni, o'quvchilar hozirgi kunda zarur bo'lgan iqtisodiy bilimlarni, malaka, ko'nikmalarni va aqliy faoliyat qobiliyatlarini egallab olishlari uchun o'quv ishlari metodikasi qanday bo'lishi kerak?

4. O'qitish vositalari-darsliklar, didaktik materiallar, ko'rgazmali qo'llanmalar va o'quv- texnika vositalaridan foydalanish (nima yordamida o'qitish)

5. Ta'limni tashkil qilishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta'limning darsdan tashqari shakllarini qanday tashkil etish). [1]

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi matematika fanidan tuzilgan dasturga binoan o'quvchilarga quyidagi bilimlarni berishni nazarda tutadi:

- Butun nomanfiy sonlarni raqamlash;
- Asosiy miqdorlar va ularning o'ldov birliklari;
- Arifmetik amallar;
- Matnli masalalar;
- Algebraik material(tenglik, tengsizlik va b.q.)
- Geometrik material;

Maktabda matematikani o'qitishni uyushtirishning tarixiy, murakkab, ko'p yillik tajribada tekshirilgan va hozirgi zamonning asosiy talablariga javob beradigan shakli darsdir. Matematikaning eng qadimgi davrlaridan hozirgi kungacha bo'lgan ko'p asrlik rivojlanish tarixida uning to'rt rivojlanish davri qayd etiladi:

1.Dastlabki omillarning jamlanishi bilan bog'liq matematikaning paydo bo'lish davri.Bu davrda matematika hali alohida fan tariqasida o'zining predmeti va metodiga ega bo'lmay, balki matematikadan faqat ayrim faktlar to'planadi. Bunga misol qilib qadimgi Misr, Bobil, Xitoy va Hind matematikasini ko'rsatish mumkin.

2.Elementar matematika davri. Bu davrga qadimgi Yunon matematiklari asos soldilar va uni O'rta Osiyodagi O'rta Sharq olimlari jumladan Al-Farg'oniy, Abu Ali Ibn Sino, Umar Xayyom, Ulug'beklar davom ettirdilar.

3.O'zgaruvchan miqdorlar matematikasi davri.

4.Klassik oliy matematika davri. [2]

O'quvchilarning matematik bilimlarni o'zlashtirishi faqat o'quv ishida to'g'ri metod tanlashga bog'liq bo'lmasdan, balki o'quv jarayonini tashkil qilish formasiga ham bog'liqdir. Dars deb dastur bo'yicha belgilangan, aniq jadval asosida, aniq vaqt mobaynida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning o'zgarimas soni bilan tashkil etilgan o'quv ishiga aytiladi.

Dars vaqtida o'quvchilar matematikadan nazariy malumotga, hisoblash malakasiga, masala yechish, har xil o'ldashlarni bajarishga o'rganadilar, ya'ni darsda hamma o'quv ishlari bajariladi.

Matematika darsining o'ziga xos tomonlari, eng avvalo, bu o'quv predmetining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu xususiyatdan biri shundan iboratki, unda arifmetik material bilan bir vaqtda algebra geometriya elementlari ham o'rganiladi.Matematika boshlang'ich kursining boshqa o'ziga xos tomoni nazariy amaliy masalalarning birgalikda qaralishidir. Shuning uchun xar bir darsda yangi bilimlar berilishi bilan unga doir amaliy o'quv malakalar sngdiriladi. Taniqli olim J.Ikromov o'zining "Язык обучения математики" kitobida "Maktab o'quvchilarining matematik madaniyati shakllanishi bir necha davrga bo'linadi",-deb ta'kidlaydi. Birinchi navbatda ular ob'yektiv tushunchalarning birgalikda tashkil etadigan mazmuni —**matematik reallikni** aniqlab oladilar. Bunda ob'yektlarning aniqlik xususiyatlari bilan tarixiy jihatlar o'rtasidagi bog'liqlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu yerda **matematik reallik** jumlasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak ushbu reallikni o'quvchilar matematik hisob kitoblarning turmush jarayonidagi ahamiyatini bevosita bilganlarida ya'ni kundalik turmush bilan bog'liq misol va masalalarni bevosita bajarganlaridagina his qiladilar. Demak kundalik turmush bilan bog'liq holda matematika o'qitishni tashkil etish o'quvchi faoliyatida muhim ahamiyatga egadir. **Kundalik turmush bilan bog'liq misollar yechish asosida o'quvchi matematik bilimlar shunchaki o'zlashtiriladigan bilimlar emas balki hayotiy zaruriyat sifatida o'zlashtirilishi lozimligi to'g'risida xulosa qiladilar.**

Odatda darsda bir necha didakik materiallar amalga oshiriladi: yangi materialni utish; o'tilgan materialni mustaxkamlash; bilmilarni mustaxkamlash; bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish; mustaxkam o'quv va malakalar xosil qilish va xokazo.Matematika darslarining o'ziga xos yana bir tomoni Shundaki, bu-o'quv materialining abstraktligidir. Shuning uchun ko'rgazmali vositalar, o'qitishning faol metodlarini sinchiklab tanlash,o'quvchilarning faolligi, sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi, kabilarga ham bog'liq.

Matematika darsida turli tuman tarbyaiviy vazifalar ham hal qilinadi. O'quvchilarda kuzatuvchanlikni,

ziyraklikni, atrofga tanqidiy qarashni, ishda tashabbuskorlikni, mas`uliyatni va sof vijdonlilikni, to`g`ri va aniq so`zlashni, hisoblash, o`lchash va yozuvlarda aniqlikni, mehnatsevarlik va qiyinchiliklarni yengish xislatlarini tarbyailaydi.

O`quv ishini tashkil etishning darsdan tashqari quyidagi shakllari mavjud:

1. Mustaqil uy ishlari.
2. O`quvchilar bilan yakka va guruh mashg`ulotlari.
3. Matematikaga qobiliyatli o`quvchilar bilan o`tkaziladigan mashg`ulotlar.
4. Matematikadan sinfdan tashqari mashg`ulotlar.
5. O`quvchilar bilan ishlab shiqarishga, tabiatga ekskursiya.

Bu yerda sanab o`tilgan ish shakllari va dars bir birini to`ldiradi. Asosiy masala darsga taalluqlidir. Darsda hamma ishlarga bevosita o`qituvchi rahbarlik qiladi. Qo`shimcha mashg`ulotlarda esa ish o`qituvchining o`zi tomonidan yoki o`qituvchi rahbarligida o`quvchilar tomonidan badjariladi.

Bugungi kunda asoslanishi lozim bo`lgan holat-o`quvchiga pedagogik yordam ko`rsatish va o`quv biluv jarayonida uni pedagogik qo`llab quvvatlashning qulay shakl va imkoniyatlarini izlab topishdan iboratdir. [3]

O`quvchilar bilan har bir darsda bir nechta tushunchalar bilan ish olib boriladi. har bir tushunchani tushunish boshqa bir tushunchani takrorlash, esga olib borish bilan olib borilsa, bu tushuncha esa keyingi tushunchalarni tushuntirish uchun xizmat qiladi. O`qitish jarayonida har bir o`quv materialini rivojlantirilgan holda olib boriladi, bu o`quv materialini o`zidan keyin o`qitiladigan materiallarni tushunish uchun poydevor bo`ladi. Boshqa tushunchaning o`zlashtirilish jarayonini qarasa, u bir nechta darslarning o`zaro bog`liqligi o`qitilishi natijasida hosil bo`ladi. Shunday qilib matematik tushunchalarni hosil qilish birgina darsning o`zida hosil qilinmasdan, balki o`zaro aloqada bo`lgan bir qancha darslarni o`tish jarayonida hosil qilinadi. Bunday darslarni birgalikda darslar tizimi deb ataymiz. Shuning uchun o`qituvchi mavzuning mazmunini ochadigan darslarni mantiqiy ketma ketlikda joylashtirishi kerak. Eng katta talab darsning o`quv tarbiyaviy maqsadini e`tiborga olish, o`qitish tamoyillarining metodik va umumpedagogik tomonlarini hisobga olishdir. Mavzu bo`yicha yaxshi o`ylangan darslar tizimining o`quv vaqtini mavzularga to`g`ri taqsimlashga bog`liq. Unda o`quvchilarning mustaqilligini hosil qilish, xususi misollarni qarash, xususi xulosalar chiqarish, undan umumiy xulosalar chiqarishga olib kelish diqqat markazida turishi lozim. Bu bilimlar darslar tizimida hosil qilinib, mustaxkamlangandan keyin misol va masalalar yechishni ta`minlashi kerak. Undan keyin mashqlar yordamida malakalarni qayta ishlashi, shuningdek hosil qilingan bilimlarni doimo bir tizimda keltirish va umumlashtirishni ham ta`minlash kerak.

Dasturning qandaydir mavzusining mazmunini aniqlashda, mavzu materialini dars vaqtlariga taqsimlashda, ya`ni bilimlarni o`zlashtirishga quyidagi asosiy bosqichlar qaraladi:

1. Yangi materialni o`qitishga tayyorlash.
2. Yangi o`quv materialini idrok qilish va yangi bilimlarni hosil qilish.
3. Bilimlarni mustahkamlash va turli xil mashqlar orqali malakalarni hosil qilish.
4. Bilimlarni takrorlash, umumlashtirish va bir tizimga keltirish.
5. Bilim va malakalarni tekshirish.

Matematika o`qitish jarayonida o`quvchilarning faolligini oshirish va matematikaga bo`lgan qiziqishini rivojlantirish omillaridan biri o`quvchilar bilan olib boriladigan mustaqil ishlardir.

Matematika darslarida mustaqil ishlar yangi materialni o`rganishga tayyorgarlik ko`rishda, yangi tushunchalar bilan tanishishda, bilim, uquv va malakalarni mustahkamlashda, shuningdek bilimlarni nazorat qilishda amalga oshiriladi.

O`qitishni tashkil qilish.

O`qitish shakli- bu o`quvchilarning o`quv bilish faoliyatlarini uni turli sharoitlarda (sinfda, ishlab shiqarishda va h.k.)o`tkazilishiga muvofiq ravishda o`qituvchi tomonidan tarbiyaviy o`qitish jarayonida foydalanialadigan qilib tashkil etilishidir.

Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitishning tashkiliy shakllari dars, uy vazifalarini mustaqil bajarish, o`quvchilarning yakka tartibda guruh va jamoa bo`lib ishlashlari, ekskursiyalar, sinfdan tashqari ishlardan iborat.

O`quv dasturi DTS asosida tasdiqlangan davlat hujjati bo`lib, uning bajarilishi majburiydir. Boshlang`ich sinflar tabiiy matematik ta`lim davlat standartlari talablarining o`quvchilar tomonidan bajarilishi ularning zarur bilimlar, malaka va ko`nikmalarini egallashlariga , bilim olishga ijobiy munosabatda bo`lishlarining shakllanishiga yordam beradi:

a)o`quvchilarni tevarak atrofda tabiiy muhitga moslashtirish, yangi ijtimoiy maqomdagi o`quvchini shakllantirish;

b)faoliyatning har xil turlarini: o`quv, mehnat, muloqotni egallash;

v)o`z-o`zini nazorat qilish hamda baholash reytingini aniqlashga o`rgatish;

g)muayyan umumiy tabiiy-ilmiy iqtidorning belgilangan darajasi va uning keyingi taraqqiyoti tavsifi.

Shunday qilib, boshlang`ich sinflar tabiiy matematik ta`lim davlat standartining o`quv-biluv jarayoniga joriy etilishi o`quv fanlariga doir tabiiy-ilmiy bilim, ko`nikma va malakalarnigina emas, balki shaxsning muayyan asosiy faoliyati majmuasi mehnat, o`quv-biluv, kommunikativ-axloqiy va jismoniy tuzilishiga mos keladigan fazilatlarining shakllanishini ham ta`minlaydi.

Kundan kunga ma`lumot oshib borayotgan bilan tushunarli bo`ladiki bugungi o`quvchilarga kerak bo`ladigan narsalarni hammasini o`rgatib bo`lmaydi. O`zlashtirilgan ma`lumot juda tez eskirib qolmoqda, chunki har kuni yangi ma`lumotlar chiqmoqda. Fanda o`qitish nazariyasi ushbu fanni o`qitish bo`yicha metodik tizimlarning faoliyat qonunini ochib beradi. Metodika ularni tadbqiqini, texnologiya esa ushbu modelni amalga oshirish usullarini ishlab chiqadi.

Tushuntirish quyidagi usullarda tahlil qilinib olib boriladi:

1)dogmatik usul.

2)evristik usul;

3) tadqiqot usuli (muammoli usul);

Birgalikda ishlash bilish faoliyatining faollashuviga yordam beradi, o`quvchilarda o`zaro nazorat qilish va o`zaro yordam berish sifatlarini shakllantiradi, tarbiyaviy vazifani ado etadi.

Tarbiyaviy vazifalarning hal etilishida darsning ayrim tarbiyaviy o`rinlari emas, balki butun o`quv jarayoni ta`lim mazmuni, o`quv ishi usullari, darsni puxta tashkil etilishi yordam berishini unutmazlik kerak.

[Adabiyotlar ro`yxati](#)

1. Karimov.I.A. "O`zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari" T-O`zbekiston 1995 y 74 bet
2. Prezident Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yiliga bag`ishlangan tantanali marosimdagi ma`ruzasi. Adolat gazetasi 2011 yil 1 sentabr № 38 son.
3. Бикбаева. Н.И. Левенберг. ,Л.Ш. "2-синфда математика" Т-"Укитувчи" 1988 й 343- бетлар
4. Бабанский.Ю.К "Хозирги замон умумий таълим мактабида укитиш методлари" Т-Укитувчи 1990 й 227 бет
5. Jumayev.M. va b.q. "Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi" T-2005 y 312 b

Tasviriy san'atni o'qitishda didaktik printsiplar

Турсуналиева Дилноз

Ўраловна

Жарқургон тумани 46-умумий ўрта таълим мактаби ўқитувчиси

Tasviriy san'at o'qitish metodikasi, didaktik printsiplar, ta'lim va tarbiya birligi printsiplari, ilmiylik printsiplari, ko'rgazmalilik printsiplari, ongillik va faollik printsiplari, bolalar yoshiga va kuchiga moslik printsiplari, muntazamlik va ketma-ketlik printsiplari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at darslarini didaktik printsiplarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Faqat amaliyot bilan nazariyani uzviy bog'lagan holdagina dars va darsdan tashqari ishlarda ta'lim va tarbiyaning samarali bo'lishiga erishish mumkin. Didaktik printsiplar va ularning asosiy masalalari Yevropaning buyuk pedagog-olimlari Ya.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.G.Pestalotstsiplar tomonidan ishlab chiqilgan. SHuningdek, didaktik printsiplarni ishlab chiqishda F.A.Disterveg va K.D.Ushinskiylar ham katta hissa qo'shganlar. Ular tomonidan ilgari surilgan g'oya hozirgi zamon didaktikasining asosini tashkil etadi. Didaktik printsiplar hisoblangan ta'lim va tarbiyaning birligi, ko'rgazmalilik, ilmiylik, ongillik va faollik, muntazamlik va ketma-ketlilik, ta'lim mazmunini bolalarning kuchi va yoshiga mos bo'lishi maktabda tasviriy san'atni o'qitishda alohida ahamiyat kasb etadi. Maktabda tasviriy san'atni o'qitishda didaktik printsiplar professorlar N.N.Rostovtsev, V.S.Kuzin, R.Hasanovlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ta'lim va tarbiya birligi printsiplari didaktik printsiplarning eng asosiyalaridan hisoblanadi va bu tasviriy san'atni o'qitish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, bugungi kunda ta'lim-tarbiyaning asosiy qismlaridan biri o'quvchilarni milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalash hisoblanadi. O'.Tansiqboevning „Jonajon o'lka“, X.Rahmonovning „May tongi“, N.Karaxanning „Oltin kuz“, Z.Inog'omovning „CHoyga“, Yu.Elizarovning „Natyurmot“ kabi asarlarida O'zbekiston ko'rk-jamoli yorqin aks ettirilgan. O'quvchilarni bunday asarlar bilan tanishtirishda bolalarda ona-Vatanimizga bo'lgan ilk muhabbat paydo bo'ladi, shu zaylda ularda ona-Vatanga, o'lkaga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ulari yanada kuchayadi. Tasviriy san'at darslarida millatlararo totuvlik va baynalminal tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlari ham katta va u turli mavzularda kompozitsiya ishlash, boshqa millat va xalqlar hayotini ifodalovchi suratlarning reproduksiyalarini, xalq ertaklariga ishlangan illyustratsiyalarni namoyish etish orqali amalga oshiriladi. „Mehmonlarimiz“, „CHet el delegatsiyasini kutib olish“, „Turistlar“ mavzularida rasm chizdirish yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlarda o'quvchilar ongiga millatlararo totuvlik, do'stlik tushunchalarini singdirishga harakat qilinadi. Asar mazmunini ochishga yordamlashuvchi suhbatlar, turli millat va xalqlarning qiyofalarini tasavvur etish, bolalar ijodining takomillashuviga, tasavvurlarining boyishiga olib keladi. Turli millat yozuvchilarining asarlari va xalqlarining og'zaki ijodiga xos illyustratsiyalar o'quvchilarga boshqa millatlarning hayoti, orzusi, g'oyalari bilan tanishish, sevish va tushunish imkonini beradi. Tasviriy san'at darslarida millatlararo do'stlik, totuvlik Respublikamiz va chet el rassomlari tomonidan yaratilgan asarlar orqali ham amalga oshirildi. Respublikamiz rassomlari tomonidan yaratilgan asarlar orasida o'zbek xalqining hayoti va mehnati, uning boshqa xalqlar va millatlar bilan totuvligi, ba'zi chet xalqlarining hayoti va mehnati aks ettirilgan suratlarni ko'rish mumkin. P.P.Venkov („Dugonalar“), A.Abdullaev („SHomahmudovlar oilasi“), L.Abdullaev („Demobilizatsiya qilinganlarni kutib olish“), Q.Husniddinxo'jaev („Navoiy va Jomiy“), A.TSiglintsev („Mening uyim, sizning ham uyingiz“), O'.Tansiqboev („Issiqko'l oqshomi“) va boshqalarning bir qator asarlari millatlararo totuvlik, do'stlik g'oyalarini aks ettirganligi bilan ajralib turadi. SHuningdek, tasviriy san'at dasturiga bir qator SHarq va G'arb mamlakatlari rassomlarining ijodini o'rganish ham kiritilgan. Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo, Rembrant, Rubens, Kent, Pissarro, Matis va boshqa chet el rassomlarining asarlari do'stlik va hamkorlik g'oyalarini amalga oshirishda boy material bo'lib xizmat qiladi. SHuningdek, dasturda Misr, Hindiston, Xitoy, Eron, Yaponiya kabi mamlakatlarning me'morchiligini o'rgatish ham nazarda tutilgan. O'qituvchi bunday san'at asarlarini tahlil qilar ekan, ularning o'ziga xos hamda umumiy belgilarini ta'kidlab o'tishi maqsadga muvofiq. O'quvchilar tasviriy san'at asarlarini o'rganish orqali chet el mamlakatlari xalqlarining mehati va mehnatdagi jasoratlari, an'analari, odatlari, turmush tarzi hamda tabiati bilan oshno bo'ladilar. Jamiyat qurilishining muaffaqiyati har bir kishining mehnat qilish darajasiga bog'liq. SHuning uchun kishilarning jamiyat uchun nafi bo'lgan mehnatga nisbatan

hatti-harakati asosiy ko'rsatkich sanaladi. Bu sifat mehnat tarbiyasi jarayonida vujudga keladi. Tasviriy san'at darslarini o'quvchilar mehnat tarbiyasini amalga oshirishdagi imkoniyatlari katta. Bu masala tasviriy san'at darslarining barcha turlari — naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya, san'atshunoslik asoslari mashg'ulotlari mazmunida ko'zda tutilgan. Naturani o'ziga qarab tasvirlash jarayonida o'quvchilar turmushda qo'llaniladigan turli buyumlar, sabzavot va mevalar tasvirini ishlaydilar. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar mustaqil ish boshlamaslaridan oldin naturani qisqacha tahlil qilib, faqat buyumlar shakli, proportsiyasi, rangi va tuzilishi haqidagina emas, balki ularni yaratish uchun sarflangan katta mehnat haqida ham gapirib beradi. Masalan, turmushga qo'llaniladigan ayrim san'at buyumlarining o'ziga qarab rasmini chizdirishda o'qituvchi o'quvchilarga buyumlarining vazifasi, shakli, ularning qanday materiallardan yasalgani, buning uchun qancha mehnat sarflangani va hokazolar haqida to'xtaladi. SHuningdek, o'zbek xalq amaliy san'ati haqidagi suhbat darslarida o'qituvchi ularning turlari va ustalarning mehnat shijoatining o'ziga xos jihatlari haqida gapiradi. „Paxta terimi“, „Fermada“, „Hosilni yig'ib-terib olish“, „Maktab yer uchastkasida“, „Qurilishda“ kabi ishlar o'quvchilarni kattalar mehnati bilan tanishtiradi. Ishlab chiqarish korxonalariga qilingan sayohat bu masalada muhim ahamiyat kasb etadi. Sayohatda bolalar kishilarning qanday mehnat qilayotganlarini kuzatadilar, mehnat sharoitlari va uni tashkil etish yo'llari bilan tanishadilar, kattalar mehnatining natijalarini ko'radilar. Sayohat chog'ida ular kattalar mehnatining ahloqiy tomonini, ularning mehnatga bo'lgan munosabatini, mehnatning jamoaviy karakterini o'rganadilar. Bolalarni sayohat jarayonida olgan taassurotlari ularning rasmlarida aks etadi, natijada o'quvchilarning mehnat haqidagi tasavvurlari yanada kengayadi. Tasviriy san'at dasturida xalqimizning fidokarona mehnati va uning go'zalligini aks ettiruvchi asarlarini o'rganish ham ko'zda tutilgan. O.Tansiqboevning „Paxtani sug'orish“, „CHorovoq qurilishida“, Z.Inog'omovning „CHoyga“ va boshqa asarlari shular jumlasiga kiradi. Bolalar o'zbek rassomlari asarlarining qahramonlari bo'lmish artist A.Hidoyatov, xalq hofizi Mulla To'ycha Toshmammedov, amaliy san'at ustasi U.Jo'raqulov va boshqa o'z baxtini mehnatdan topgan kishilar bilan suvratlar orqali uchrashar ekanlar, ular, mehnat jamiyat hayotining, har bir shaxsining asosiy qonuni ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Bunday darslarda o'quvchilarni turli kasblarga yo'llash imkoniyatlari ham paydo bo'ladi. Natijada, o'quvchilar mehnat inson baxt-saodatining ma'naviy va axloqiy manbai, har qanday inson mehnat qilmog'i va mehnatni sevmog'i lozim, degan xulosaga keladilar. SHuningdek, bolalar odamlar faqat o'zi uchun emas, jamiyat uchun mehnat qilishlari kerak, mehnat kishilariga va ular yaratgan buyumlarga nisbatan hurmat bilan qarash lozimligi haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Maktabda tasviriy san'at estetik turkumdagi o'quv predmeti xisoblanib, o'quvchilarda badiiy va estetik didning rivojlanishida muhim ro'ly o'ynaydi, ya'ni tasviriy san'at darslarida san'atdagi va borliqdagi go'zallikni ko'rish, tushunish va qadrlay olish hissi takomillashadi. Naturani tahlil qilish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini buyumlar shaklining nafisligi, qismlarning proportsionalligi, shakl va rang uyg'unligi, mazmun, shakl va vazifaning mosligi kabilarga jalb etadi. Natijada, o'quvchilarda naturaga nisbatan emotsional — estetik munosabatlar oshadi. O'quvchilar naqsh chizishda, dekorativ — bezak ishlarida tabiat elementlaridan foydalanadilar. Bunga tabiat mahsulotlari yaxshi material bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar tabiat materiallari va hayvonot dunyosini stilizatsiyalashtirib, takrorlanmas va chiroyli naqshlar tuzadilar. Borliqni idrok etish va kompozitsiya darslarida tabiatni kuzatish va uni rasmlarda aks ettirish bolalar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar dars jarayonida tabiatni kuzatar ekanlar, ular daraxtlarning tuzilishini, shoh-shabalarning shakl va yo'nalishini turli-tumanligi, barglarning rangi va shakli, nafisligi va yoqimiliginini bilib oladilar. SHuningdek, gullarning rangi va shakli, xilma-xilligi, bahor va kuz manzarasining go'zalligi, ninachi, kapalak, qushlarning yengil va nafis parvozi ham o'quvchilarni hayajonlantiradi. Yuqori badiiy saviyada yaratilgan tasviriy san'at asarlarini o'rganishda o'quvchilar ulardan estetik zavq olishadi. Suvrat kompozitsiyasining muvaffaqiyatli yechilishi, ranglarning hamohangligi, borliqning haqqoniy tasviri bolalarni hayajonlantiradi. Bu faqat estetik tarbiyaga taalluqligina bo'lmay, balki, bolalarning tasviriy ijodiga, ularning san'atga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashga bevosita aloqadordir. Bu borada manzara va natyurmort janrlarining roli kattadir.

Умумий ўрта таълим мактабларида: Тарих ўқитиш методикасининг предмети, мақсад ва вазифалари

Усмоналиева Рисолат Умаралиевна

Назаров Умедилло Холмўминович,

Абиев Маманазар Худойназарович,

Хасанов Абдулло Абдусаломович

Ходжаев Зафар Худойкулович

Тарих дарсларида тарихий тасаввур ва тушунчаларни шакллантириш. Ўқувчиларни тарихий қонуниятларни тушунишга олиб келиш Тарихий тасаввур ва тушунчалар бир-бири билан узвий боғланган. Ўқувчиларда ҳодисалар тарихий жараёнлар ҳақида етарли даражада тўлиқ ва аниқ тасаввурлар мавжуд бўлгандагина тушунчалар ҳосил бўла олади. Тарих ўқитиш жараёнида ўқувчиларнинг тасаввурлари чуқурлашиб бориши натижасида тушунчаларни шакллантириш учун замин яратилади. Тушунчалар ўз навбатида тасаввурларни мазмунан бойитиб, аниқлашиб боришига ёрдам беради.

Тасаввур ва тушунчаларни ҳосил қилиш методик усуллари ҳам кўпчилик ҳолларда бир-бирига ўхшаб кетади. Тасаввурлар ҳосил қилишнинг асосий усул ва воситалари. Тарих ўқитишда ўқувчиларнинг кўз ўнгида ўтмишдаги ижтимоий ҳаётнинг яхлит манзараларини шакллантиришда жонли ва ёрқин образлардан фойдаланишнинг аҳамияти каттадир. Шунга эришиш керакки, баён қилинган ҳар бир тарихий факт, географик ном ва шахс фаолияти образли бўлсин.

Образлилик — ўқувчиларнинг тарихдан оладиган билимларини илмий ва пухта бўлишининг зарур шартларидан бири, тарихий воқеаларни модернизация қилишнинг олдини олиш омили, тарихга қизиқишини уйғотиш ҳамда тарихий фактларни таҳлил қилиш ва умумлаштириш учун зарур бўлган шарт-шароитларни яратишнинг муҳим воситасидир.

Тасаввурларни шакллантиришда тарихий ҳодисалар образларини ўқувчилар актив суратда идрок этишига қаратилган усуллардан фойдаланади. Ўқитувчи ҳикоясининг мазмунан кўргазмали ва образли бўлиши, дарслик матнидаги, тарихий ҳужжатлардаги воқеалар ва тасвирий элементлар, бадиий адабиёт асарлари ўқувчиларда тарихий тасаввурларни шакллантиришнинг асосий манбаи бўлиб хизмат қилади. Ўқитувчи материални баён қилаётганда, тарихий ҳужжатлардан, илмий оммабоп ва бадиий адабиёт асарларидан олинган ёрқин тафсилотларга ҳамда ўқувчилардаги тарихга қизиқишининг ортиши, уларнинг муҳим тафсилотларни ажратиб олиши ва хотирада сақлаб қолишларига ёрдам беради. Бироқ, ўқувчиларда аниқ ва пухта тасаввур ҳосил қилиш учун ўқитувчи баённинг жонли ва эмоционал бўлишини ўзи кифоя қилмайди.

Ўқитувчи ўқувчиларнинг фаол фикрлашини ташкил қилиши ва унга раҳбарлик қилиши лозим. Ўқитувчи кўргазмали қуролни шундайгина кўрсатиб, унинг мазмунини тушунтириб, ҳужжатларни ўқиб қўя қолмай, балки ҳикоядаги энг муҳим жойларни алоҳида интонация билан таъкидлаши, кўрсатмали қуролларни, матнларни ўқувчиларнинг фаол иштирокида таҳлил қилиб, ундаги энг муҳим элементларни ажратиб чиқиши, ўрганилган ҳужжатлардаги у ёки бу жиҳатларга улар диққатини жалб қилиши лозим. Тарих бўйича ҳар бир синф дастурларининг охирида асосий тушунчалар мазмуни белгилаб берилган. Бу тушунчалар курснинг илмий мазмунини, ғоявий-назарий асосларини аниқлаб олиши, конкрет тарихий материални таҳлил қилиш ва умумлаштириш бўйича иш усулларини белгилаб олишга ёрдам беради.

Тарихий тушунчаларни ҳосил қилиш деганда ўқувчиларнинг тарихий фактларнинг энг муҳим белгиларини иккинчи даражали белгиларидан ажрата билиш; уларни гуруҳларга бўла олишни, тарихий

воқеа ва ҳодисалар ўртасидаги боғланиш муносабатларни чуқур англаб тушуниб олиши кўзда тутилади. Ана шу таҳлитда шаклланган, мукамал тарихий тушунчалар илмий билимлар системасини вужудга келишида бамисоли занжир вазифасини ўтайди. Тарихий ўқитиш жараёнида тарихий тасаввурлар билан тушунчаларни шакллантириш узвий боғланган бўлиб, бир вақтнинг ўзида амалга ошади.

Юқорида таъкидланганидек, тарихий тушунчаларни шакллантиришда ўқувчиларнинг фикрлаш фаолиятларини рағбатлантириш ва унга раҳбарлик қилиш муҳим роль ўйнайди.

Ўқитувчи раҳбарлигида ўқувчилар ҳодисани фикран бир неча қисмга бўлиб, унинг муҳим белгиларини ажратиб олиб, муҳим бўлмаган белгилардан айирадилар ҳамда бир турдаги ҳодисаларнинг энг муҳим белгиларини умумлаштирадилар. Ўқувчиларда тарихий тушунчалар ҳосил бўлишига олиб келадиган бу мантиқий фаолият, кўпинча тарихни ўқитиш давомида тарихий тасаввурлар ҳосил қилиш учун хизмат қиладиган янги материални идрок этиш билан қўшилиб кетади.

Ўқитувчи расми ёки дарслиқдаги суратларни таҳлил этиб, уларнинг мазмунини анализ ва синтез қилганда, ўқувчиларда ўрганиладиган ҳодисаларнинг муҳим белгиларини акс эттирувчи ёрқин, аниқ тасаввурлар ҳосил қилишга қаратилган иш олиб бориш билан бирга, ҳодисаларнинг ўша белгиларини умумлаштирувчи тушунчалар ҳосил қилишга қаратилган иш ҳам олиб боради. Лекин тушунчалар ҳосил қилишга қаратилган иш ўқувчилар томонидан ҳатто илгарироқ ўзлаштириб олинган материал асосида олиб борилаётган тақдирда ҳам, бу иш ўқувчилардаги мавжуд тасаввурларни актуаллаштириб, ҳодисалар билан биринчи бор танишилган пайтда уларнинг пайқалмай қолган ёки ажратиб олинмаган белгиларни кўра билишга ва ажратиб олишга ёрдам беради.

Ҳодисалар ўртасидаги боғланиш ва муносабатлар қанчалик кўпроқ ва ҳар томонлама очиб берилиб, уларнинг маъноси қанчалик чуқурроқ тушуниб етилган сари, умуман, тарих билимлари шунчалик юқорироқ даражада системалашиб, ҳар бир ҳодисанинг тарихий жараёндаги ўрни ва роли шунчалик аниқроқ аниқлаб олина боради.

Тарих ўқитишда тушунчаларни шакллантиришнинг усул ва воситалари хилма-хил бўлиб, аввало у тушунчаларнинг мазмуни мураккаблигига боғлиқ. Масалан, моддий буюмлар (гарпун, омонч, кема) тўғрисида тушунчалар ҳосил қилиш учун бир ёки бир неча соат дарс кифоя қилса, социологик тушунчалар (ишлаб чиқариш кучлари ва ишлаб чиқариш муносабатлари, синфий кураш, идеология ва бошқа) ўқувчиларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда барча тарих курсларини ўрганиш давомида ўзлаштирилади.

Ўқувчилардаги тушунчаларни чуқур ва мустаҳкам бўлиши, асосан, ўқитувчининг ўқувчилар фикрлаш фаолиятини қанчалик уйғота олиши ва унга қай даражада раҳбарлик қила билишига боғлиқ. Тарихий тушунчалар ҳосил қилишда ўқувчиларнинг воқеа ва ҳодисаларни анализ, синтез қила олиш қобилиятини ўз ичига олган фикрлаш фаолиятини кучайтиришда таълимнинг фаол методлари — муаммоли таълим, эвристик суҳбат методларидан фойдаланиш, ўқувчиларнинг кўрсатмали қуроллар, таълимнинг техника воситалари, тарихий ҳужжатлар билан ишларини уюштириш, уларга тарихни чуқур ўрганиш билан боғлиқ бўлган турли амалий характердаги ишларни топшириш алоҳида аҳамиятга эга. Бир турдаги воқеа ва ҳодисалар, тарихий жараёнлар ҳамда сабаб-оқибат боғланишлар мазмунини таққослаб ўрганиш жамият тараққиётининг айрим ва баъзи бир умумий қонуниятларини тушуниб олиш имконини беради.

Ўқитувчи воқеа ва ҳодисаларнинг сабаб ва оқибатлари ўртасидаги алоқа ҳамда боғланишларни, кўпинча, дастлаб бир мамлакат тарихини ўрганиш пайтида илгари ўрганилган ҳодисаларга ўхшаш ҳодисаларга дуч келганда ўқитувчи ўқувчиларга бир-бири билан ўхшаш сабаб- натижали боғланишлар тўғрисидаги билим малакаларини ўрганилаётган ҳодисаларни изоҳлаб беришга дедуктив суратда таққослаб бориш ўқувчиларни: ҳодисалар ўртасидаги бу боғланишлар тасодифий бўлмай, балки барқарор ва зарурий қонуният эканлиги тўғрисида хулоса чиқаришга олиб келади. 6-7 синфларда Қадимги дунё ва Ўрта асрлар тарихини ўрганиш жараёнида қонуният термини қўлланилмасида,

ўқувчиларни қонуният нималигини тушунишга олиб келади.

Қадимги дунё тарихида «Қадимги Миср» мавзуси материали асосида ўқувчилар меҳнат қуролларининг такомиллашиши, меҳнат унумдорлигини ошириш ва ортиқча маҳсулотни ишлаб чиқарилиши, кишини киши томонидан эксплуатация қилиш учун имконият яратилганлиги, синфларни ва давлатни пайдо бўлишига сабаб бўлганлигига тушуниб оладилар. Сабаб натижа алоалари. Ҳар бир фактнинг сабаблари ундан олдинги фактларда мавжуд бўлади ва шу фактнинг ўзи ҳам, ўз навбатида, кейинги фактларнинг сабаби бўлмоғи мумкин. Ҳар бир йирик тарихий факт ижтимоий ҳаётнинг кўпинча турли соҳаларида мавжуд бўлган бир қанча сабаблар натижасида вужудга келади.

Тарихий ривожланишнинг қонунларини чуқур ўрганишда таққослашнинг аҳамияти каттадир. Масалан, ўқитувчи Қадимги дунё тарихини охирларида «Қадимги Ҳиндистон» ёки «Қадимги Хитой» мавзуларини ўтаётганда, ўқувчиларга Қадимги Ҳиндистон, Қадимги Хитой давлатининг пайдо бўлишини ўзларидаги худди шу ҳақидаги билимлар билан таққослаб ўрганишни тавсия қилади. Миср, Икки дарё оралиғи, Ҳиндистон ва шарқий Хитойнинг географик ўрни, иқлими, тупроғи ва ўсимликлари, аҳолининг машғулотларини таққослаб ўрганиш, бу мамлакатларнинг ҳаммаси иқлими иссиқ, ҳосилдор ерларда, катта дарёларнинг водийларида жойлашганлиги, уларда деҳқончилик ва чорвачилик эрта ривожланишига сабаб бўлганлиги тўғрисида хулоса чиқаришга, ғоят қулай шароит туфайли, одамлар ибтидоий меҳнат қуролларидан фойдаланишига қарамай, ортиқча маҳсулот ишлаб чиқарилгани, баъзи одамларни бошқалар ҳисобига яшаши учун имконият туғилганини аниқлаб олишларига ёрдам беради.

Қадимги Шарқ мамлакатларидаги деҳқончилик системасини таққослаб ўрганиш, улардаги умумий хусусиятларни, яъни сунъий суғориш ва ерларнинг сувини қочириш йўли билан мўл ҳосил олиш мумкинлигини, меҳнат унумдорлигининг ошиши ва ортиқча маҳсулотнинг пайдо бўлишининг натижаси ўлароқ эксплуатация, синфлар ва давлатлар вужудга келганлигини тушуниб олиш имкониятини беради.

Табиат билан бирга, уни авайлаб сақлаши, атроф-муҳитни муҳофаза қилиши зарурлиги ҳақидаги хулосага олиб келинади. Шундай қилиб, ижтимоий ривожланиш қонунларини ўрганиш узоқ муддатли жараён бўлиб, у ўқувчиларда умумий назарий билимлар ва илмий дунёқарашни шакллантириш ишларининг муҳим таркибий қисмидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Асқаров А. Ўзбекистон мустақиллиги шароитида тарих фанининг вазифалари.- «Ўзбекистонда ижтимоий фанлар» 1992. № 7-8.
2. Ахмедов Б.Тарихдан сабоқлар. Т.,1992 25. Ахмедов Д. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари.Т.,1991
3. Бабанский Ю.К. Как активизировать процесс обучения. М., 1979
4. Бабанский Ю.К. Ҳозирги замон умумий таълим мактабида ўқитиш методлари.Т., 1990 28. Гаффаров Я, Гаффарова М. Ўзбекистон халқлари тарихини ўқитиш усуллари.Т., 1996.
5. Годер Г.И. Методическое пособие по истории древнего мира.М., 1977
6. Гора П.В.Методические приемы и средства наглядного обучения истории в средней школе. М.,1971
7. Гора П.В. Об опросе на уроках преподавания истории в школе. М.,1960
8. Гора П.В. Повышение эффективности обучения истории в школе. М., 1988
9. Горюнова Т.А., Королева И.Ш. Путь к профессии учителя.-"Педагогика и психология".М., 1981, N8.

Использование информационно-коммуникационных технологий в начальной школе

Норматова Гулнара Тожиевна

Старший преподаватель
Регионального центра повышения квалификации
и переподготовки работников народного образования
при Термезском гос.университете

Хушвактов Нурбой Тогаевич

Преподаватель школы № 55 Кизирикского района,

Рахматов Номоз Тоштемирович

Преподаватель Школы № 16 Музарабатского района,

Ачилдиева Дилноза Туробовна

Преподаватель Школы № 68-Кумкурганского района,

Абдураимова Халима Кодировна

Преподаватель Школы № 20 Алтынсайского района

XXI век — век высоких компьютерных технологий. Современный ребенок живет в мире электронной культуры. Меняется и роль учителя в информационной культуре — он должен стать координатором информационного потока. Следовательно, учителю необходимо владеть современными методиками и новыми образовательными технологиями, чтобы общаться на одном языке с ребенком.

Сегодня, когда информация становится стратегическим ресурсом развития общества, а знания — предметом относительным и ненадежным, так как быстро устаревают и требуют в информационном обществе постоянного обновления, становится очевидным, что современное образование — это непрерывный процесс.

Одной из главных задач, стоящих перед учителем начальной школы, является расширение кругозора, углубление знаний об окружающем мире, активизация умственной деятельности детей, развитие речи.

Бурное развитие новых информационных технологий и внедрение их в нашей стране наложили отпечаток на развитие личности современного ребенка. Сегодня в традиционную схему «учитель — ученик — учебник» вводится новое звено — компьютер, а в школьное сознание — компьютерное обучение. Одной из основных частей информатизации образования является использование информационных технологий в образовательных дисциплинах.

Для начальной школы это означает смену приоритетов в расстановке целей образования: одним из результатов обучения и воспитания в школе первой ступени должна стать готовность детей к овладению современными компьютерными технологиями и способность актуализировать полученную с их помощью информацию для дальнейшего самообразования. Для реализации этих целей возникает необходимость применения в практике работы учителя начальных классов разных стратегий обучения младших школьников и в первую очередь использование информационно-коммуникативных технологий в учебно-воспитательном процессе.

· **Использование презентаций в начальных классах на различных уроках**

Математика

На уроках математики с помощью слайдов, созданных в программе PowerPoint, может осуществляться демонстрации примеров, задач на доске, цепочек для устного счета, могут быть

организованы математические разминки и самопроверка.

В начальной школе много времени отводится решению задач. Здесь особенно нужна наглядность на всем протяжении обучения, как важное средство развития более сложных форм конкретного мышления и формирования математических понятий. Начиная с первого класса, ребята должны научиться понимать задачу, поэтому учителю приходится рисовать иллюстрации, чертежи и рисунки к задаче, а это отнимает драгоценные учебные минуты, да и учителю приходится долго готовиться, чтобы сделать рисунок, а здесь достаточно щелчка мышки.

При подготовке к уроку «Доли числа» (см. в «Приложении») при помощи мультимедийной презентации была организована исследовательская деятельность при образовании доли числа и сравнении долей, после чего обучающиеся легко самостоятельно сделали вывод.

Окружающий мир

Вообще для этих уроков презентация просто находка. Картинки окружающей нас природы, животные, моря, океаны, природные зоны, круговорот воды, цепочки питания — все можно отразить на слайдах. Во многих школах нет современных карт, да и купить их накладно. А здесь все готовое. И проверить знания проще: тесты, кроссворды, ребусы, шарады — все делает урок увлекательным, а следовательно, запоминающимся.

Обучение грамоте

Первые дни ребенка в школе являются самыми трудными. Игра необходима для сохранения преемственности между детским садом и школой, и для снижения психических и физических перегрузок. С помощью презентаций открываются большие возможности для привлечения элементов игры и занимательности на уроках обучения грамоте. Они кроются в картинности текстового и иллюстрированного материала и дают толчок детской фантазии, работе творческого воображения. Необходимо отметить, что огромная роль в презентациях играет не просто демонстрация изображения, а анимация, т.е. движение картинки, буквы, слова.

Чтение

Особенно интересными с помощью презентации можно сделать уроки чтения. Портреты писателей, места, где они жили и творили, инсценировки из отдельных эпизодов из произведений, составление плана, словарная работа, чистоговорки, скороговорки — все становится интересным, если использовать эти современные методы

Изобразительное искусство, технология

Презентацию также можно использовать на уроках изобразительного искусства: портреты художников, репродукции, схемы, последовательность выполнения рисунка и т.д. Образцы изделий и этапы работы по проектной деятельности на уроках технологии и т.д.

Личный опыт использования ИКТ в начальной школе при проведении современного урока

В своей работе я использую готовые электронные ресурсы, сама составляю электронные приложения к уроку, к отдельным темам, составляю тестовые задания по отдельным темам, использую ИКТ для оформления исследовательских работ, составления презентаций, слайд — проектов. Использование электронных учебных пособий позволяет повысить качество обучения, сделать его динамичным, решать несколько задач — наглядность, доступность, индивидуальность, контроль, самостоятельность. На уроках для большей эффективности я использую предметные коллекции, портреты, видеоэкскурсии, интерактивные модели, фотографии, иллюстрации объектов (в основном, это энциклопедии, которые очень помогают при подготовке к уроку). При объяснении нового материала информацию, появляющуюся на экране — комментирую, по необходимости сопровождаю дополнительными объяснениями и примерами. Применяю ИКТ при подготовке и проведении нетрадиционных форм урока.

Для развития творческих способностей учащихся и активизации их познавательной деятельности предлагаю им творческие задания. Работа обучающихся над заданиями такого типа привлекательна тем, что проявляется личностная ориентация педагогического процесса, происходит поиск и развитие способностей, заложенных природой в каждом ребенке. Выше было сказано о презентациях. Их использование на уроках просто незаменимо. Я подбираю презентации к разным урокам, по разным темам, нахожу в Интернете, делаю сама. Урок от этого становится интереснее. Материал, традиционно трудно усваиваемый, при использовании электронных приложений к урокам, тестов, у ребят вызывает интерес к предмету, и углубляются знания по предметам. Элементы методики преподавания предметов с использованием ИКТ могут быть такими:

1. Создание «проблемных ситуаций» в процессе изложения учебного материала.

2. Виды занятия:

- рассказ, беседа, киноурок (использование аудио-видео материалов);
- электронные и печатные материалы;
- виртуальная экскурсия.

3. Формы работы учеников: работа с книгой, анализ произведения, исследовательская работа, сочинение, создание презентаций.

4. Оценка качества усвоенных знаний на занятиях в форме тестирования, тест — опрос. Материал урока должен быть разбит на четкие, законченные части, логично соединенные друг с другом.

Продуктивность таких уроков очень высокая.

Благодаря компьютеру, в более короткие сроки можно решить такие задачи как пополнение словарного запаса, формирование грамматического строя, восполнение пробелов в развитии звуковой стороны речи, формирование связной речи, развитие орфографической зоркости, что способствует повышению грамотности. У учащихся повышается интерес к процессу обучения, развивается навык самоконтроля и самостоятельной деятельности. Мультипликационный или видеосюжет электронной энциклопедии не только расширяет спектр предъявляемой информации, но и активизирует внимание школьников за счет активной работы зрительного и слухового анализаторов.

Компьютер формирует навыки рационального запоминания материала. Учащимся легче запомнить трудный материал с помощью схем и таблиц, в которых кратко и наглядно показан изучаемый материал.

Чтобы учащиеся были активно вовлечены в процесс обучения, а не являлись лишь пассивными зрителями, в своей работе использую метод проектов. Благодаря современной технике и оптимальным методам обучения учитель дает возможность каждому ребенку «путешествовать» по миру знаний, подобно тому, как он путешествует по игровым сценам какой-нибудь развлекательной игры, что дает новый мощный импульс для развития самостоятельной познавательной активности. Трудно представить себе современный урок без использования компьютерных технологий. Они могут быть органично включены в любой этап урока — во время индивидуальной или словарной работы, при введении новых знаний, их обобщении, закреплении, для контроля ЗУНов. Использование компьютерных технологий позволяет нам вовлечь детей в активную работу и заразить их стремлением овладеть компьютерной грамотностью. В итоге возрастает интерес не только к основным, но и к факультативным занятиям.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Компьютер является и мощнейшим стимулом для творчества детей, в том числе и самых инфантильных или расторможенных. Экран притягивает внимание, которого мы порой не можем

добиться при фронтальной работе с классом. Воздействие учебного материала на учащихся во многом зависит от степени и уровня иллюстративности материала. Визуальная насыщенность учебного материала делает его ярким, убедительным, способствует лучшему его усвоению и запоминанию.

В начальной школе мы можем использовать презентации на любых этапах урока: при объяснении нового материала, закреплении, повторении, контроле, при проведении внеклассных занятий и др. Ребенок становится ищущим, жаждущим знаний, неутомимым, творческим, настойчивым и трудолюбивым. Таким образом, труд, затраченный на управление познавательной деятельностью с помощью средств ИКТ оправдывает себя во всех отношениях:

- повышает качество знаний;
- продвигает ребенка в общем развитии;
- помогает преодолеть трудности;
- вносит радость в жизнь ребенка;
- позволяет вести обучение в зоне ближайшего развития;
- создает благоприятные условия для лучшего взаимопонимания учителя и учащихся и их сотрудничества в учебном процессе.

Анализ таких занятий с применением презентаций показал, что познавательная мотивация увеличивается, облегчается овладение сложным материалом. Кроме того, фрагменты уроков, на которых используются презентации, отражают один из главных принципов создания современного урока — принцип фасциации (принцип привлекательности). Благодаря презентациям, дети, которые обычно не отличались высокой активностью на уроках, стали активно высказывать свое мнение, рассуждать. Достаточно широкое распространение мультимедиа проекторов позволяет значительно увеличить наглядность за счет использования учителем в ходе урока мультимедиа презентации.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Волков В. Современные мультимедиа // Компьютер — ИНФО, 1999. С 21-27.
2. Голосов В. Использование ИКТ на уроках в начальной школе. <http://firsschool.ucoz.ru/oad/1-1-0-2>
3. Дебердеева С.Г. Развитие интеллектуальных и творческих способностей младших школьников на уроках информатики. — Информатика и образование. — 2003. — № 10.
4. Дьяконов В. Мультимедиа-ПК. // Домашний компьютер, 1999. С.33-38.
5. Кехтер Т.А. Необходимость применения в практике работы учителя начальных классов информационно-коммуникативных технологий. kexter@mail.ru
6. Оливер В., Оливер Н. Новые технологии в обучении. С.Пб.: БХВ — Санкт-Петербург, 2000.

TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA DIDAKTIK PRINTSIPLAR

Турсунбоева Гавхар Жумаевна

Ангор тумани тумани 33-умумий ўрта таълим мактаби ўқитувчиси,

Мейликулов Хусан Сувонович

Шеробод тумани 28-сон умумий ўрта таълим мактаби ўқитувчиси

Tasviriy san'at o'qitish metodikasi, didaktik printsiplar, ta'lim va tarbiya birligi printsiplari, ilmiylik printsiplari, ko'rgazmalilik printsiplari, onglilik va faollik printsiplari, bolalar yoshiga va kuchiga moslik printsiplari, muntazamlik va ketma-ketlik printsiplari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at darslarini didaktik printsiplarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Faqat amaliyot bilan nazariyani uzviy bog'lagan holdagina dars va darsdan tashqari ishlarda ta'lim va tarbiyaning samarali bo'lishiga erishish mumkin. Didaktik printsiplar va ularning asosiy masalalari Yevropaning buyuk pedagog-olimlari Ya.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.G.Pestalotstilar tomonidan ishlab chiqilgan. SHuningdek, didaktik printsiplarni ishlab chiqishda F.A.Disterveg va K.D.Ushinskiylar ham katta hissa qo'shganlar. Ular tomonidan ilgari surilgan g'oya hozirgi zamon didaktikasining asosini tashkil etadi. Didaktik printsiplar hisoblangan ta'lim va tarbiyaning birligi, ko'rgazmalilik, ilmiylik, onglilik va faollik, muntazamlik va ketma-ketlilik, ta'lim mazmunini bolalarning kuchi va yoshiga mos bo'lishi maktabda tasviriy san'atni o'qitishda alohida ahamiyat kasb etadi. Maktabda tasviriy san'atni o'qitishda didaktik printsiplar professorlar N.N.Rostovtsev, V.S.Kuzin, R.Hasanovlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ta'lim va tarbiya birligi printsiplari didaktik printsiplarning eng asosiylaridan hisoblanadi va bu tasviriy san'atni o'qitish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, bugungi kunda ta'lim-tarbiyaning asosiy qismlaridan biri o'quvchilarni milliy istiqloq mafkurasi ruhida tarbiyalash hisoblanadi. O'.Tansiqboevning „Jonajon o'lka“, X.Rahmonovning „May tongi“, N.Karaxanning „Oltin kuz“, Z.Inog'omovning „CHoyga“, Yu.Elizarovning „Natyurmot“ kabi asarlarida O'zbekiston ko'rk-jamoli yorqin aks ettirilgan. O'quvchilarni bunday asarlar bilan tanishtirishda bolalarda ona-Vatanimizga bo'lgan ilk muhabbat paydo bo'ladi, shu zaylda ularda ona-Vatanga, o'lkaga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ulari yanada kuchayadi. Tasviriy san'at darslarida millatlararo totuvlik va baynalminal tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlari ham katta va u turli mavzularda kompozitsiya ishlash, boshqa millat va xalqlar hayotini ifodalovchi suratlarning reproduksiyalarini, xalq ertaklariga ishlangan illyustratsiyalarni namoyish etish orqali amalga oshiriladi. „Mehmonlarimiz“, „CHet el delegatsiyasini kutib olish“, „Turistlar“ mavzularida rasm chizdirish yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlarda o'quvchilar ongiga millatlararo totuvlik, do'stlik tushunchalarini singdirishga harakat qilinadi. Asar mazmunini ochishga yordamlashuvchi suhbatlar, turli millat va xalqlarning qiyofalarini tasavvur etish, bolalar ijodining takomillashuviga, tasavvurlarining boyishiga olib keladi. Turli millat yozuvchilarining asarlari va xalqlarining og'zaki ijodiga xos illyustratsiyalar o'quvchilarga boshqa millatlarning hayoti, orzusi, g'oyalari bilan tanishish, sevish va tushunish imkonini beradi. Tasviriy san'at darslarida millatlararo do'stlik, totuvlik Respublikamiz va chet el rassomlari tomonidan yaratilgan asarlar orqali ham amalga oshirildi. Respublikamiz rassomlari tomonidan yaratilgan asarlar orasida o'zbek xalqining hayoti va mehnati, uning boshqa xalqlar va millatlar bilan totuvligi, ba'zi chet xalqlarining hayoti va mehnati aks ettirilgan suratlarni ko'rish mumkin. P.P.Venkov („Dugonalar“), A.Abdullaev („SHomahmudovlar oilasi“), L.Abdullaev („Demobilizatsiya qilinganlarni kutib olish“), Q.Husniddinxo'jaev („Navoiy va Jomiy“), A.T.Siglintsev („Mening uyim, sizning ham uyingiz“), O'.Tansiqboev („Issiqko'l oqshomi“) va boshqalarning bir qator asarlari millatlararo totuvlik, do'stlik g'oyalarini aks ettirganligi bilan ajralib turadi. SHuningdek, tasviriy san'at dasturiga bir qator SHarq va G'arb mamlakatlari rassomlarining ijodini o'rganish ham kiritilgan. Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo, Rembrant, Rubens, Kent, Pissarro, Matis va boshqa chet el rassomlarining asarlari do'stlik va hamkorlik g'oyalarini amalga oshirishda boy material bo'lib xizmat qiladi. SHuningdek, dasturda Misr, Hindiston, Xitoy, Eron, Yaponiya kabi mamlakatlarning me'morchiligini o'rgatish ham nazarda tutilgan. O'qituvchi bunday san'at asarlarini tahlil qilar ekan, ularning o'ziga xos hamda umumiy belgilarini ta'kidlab o'tishi maqsadga muvofiq. O'quvchilar tasviriy san'at asarlarini o'rganish orqali chet el mamlakatlari xalqlarining mehati va mehnatdagi jasoratlari, an'analari,

odatlarini, turmush tarzi hamda tabiati bilan oshno bo'ladilar. Jamiyat qurilishining muvaffaqiyati har bir kishining mehnat qilish darajasiga bog'liq. SHuning uchun kishilarning jamiyat uchun nafi bo'lgan mehnatga nisbatan hatti-harakati asosiy ko'rsatkich sanaladi. Bu sifat mehnat tarbiyasi jarayonida vujudga keladi. Tasviriy san'at darslarini o'quvchilar mehnat tarbiyasini amalga oshirishdagi imkoniyatlari katta. Bu masala tasviriy san'at darslarining barcha turlari — naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya, san'atshunoslik asoslari mashg'ulotlari mazmunida ko'zda tutilgan. Naturani o'ziga qarab tasvirlash jarayonida o'quvchilar turmushda qo'llaniladigan turli buyumlar, sabzavot va mevalar tasvirini ishlaydilar. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar mustaqil ish boshlamaslaridan oldin naturani qisqacha tahlil qilib, faqat buyumlar shakli, proporsiyasi, rangi va tuzilishi haqidagina emas, balki ularni yaratish uchun sarflangan katta mehnat haqida ham gapirib beradi. Masalan, turmushga qo'llaniladigan ayrim san'at buyumlarining o'ziga qarab rasmini chizdirishda o'qituvchi o'quvchilarga buyumlarning vazifasi, shakli, ularning qanday materiallardan yasalgani, buning uchun qancha mehnat sarflangani va hokazolar haqida to'xtaladi. SHuningdek, o'zbek xalq amaliy san'ati haqidagi suhbat darslarida o'qituvchi ularning turlari va ustalarning mehnat shijoatining o'ziga xos jihatlari haqida gapiradi. „Paxta terimi“, „Fermada“, „Hosilni yig'ib-terib olish“, „Maktab yer uchastkasida“, „Qurilishda“ kabi ishlar o'quvchilarni kattalar mehnati bilan tanishtiradi. Ishlab chiqarish korxonalariga qilingan sayohat bu masalada muhim ahamiyat kasb etadi. Sayohatda bolalar kishilarning qanday mehnat qilayotganlarini kuzatadilar, mehnat sharoitlari va uni tashkil etish yo'llari bilan tanishadilar, kattalar mehnatining natijalarini ko'radilar. Sayohat chog'ida ular kattalar mehnatining ahloqiy tomonini, ularning mehnatga bo'lgan munosabatini, mehnatning jamoaviy harakterini o'rganadilar. Bolalarni sayohat jarayonida olgan taassurotlari ularning rasmlarida aks etadi, natijada o'quvchilarning mehnat haqidagi tasavvurlari yanada kengayadi. Tasviriy san'at dasturida xalqimizning fidokarona mehnati va uning go'zalligini aks ettiruvchi asarlarini o'rganish ham ko'zda tutilgan. O.Tansiqboevning „Paxtani sug'orish“, „CHorovoq qurilishida“, Z.Inog'omovning „CHoyga“ va boshqa asarlari shular jumlasiga kiradi. Bolalar o'zbek rassomlari asarlarining qahramonlari bo'lmish artist A.Hidoyatov, xalq hofizi Mulla To'ycha Toshmammedov, amaliy san'at ustasi U.Jo'raqulov va boshqa o'z baxtini mehnatdan topgan kishilar bilan suvratlar orqali uchrashar ekanlar, ular, mehnat jamiyat hayotining, har bir shaxsining asosiy qonuni ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Bunday darslarda o'quvchilarni turli kasblarga yo'llash imkoniyatlari ham paydo bo'ladi. Natijada, o'quvchilar mehnat inson baxt-saodatining ma'naviy va axloqiy manbai, har qanday inson mehnat qilmog'i va mehnatni sevmog'i lozim, degan xulosaga keladilar. SHuningdek, bolalar odamlar faqat o'zi uchun emas, jamiyat uchun mehnat qilishlari kerak, mehnat kishilariga va ular yaratgan buyumlarga nisbatan hurmat bilan qarash lozimligi haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Maktabda tasviriy san'at estetik turkumdagi o'quv predmeti xisoblanib, o'quvchilarda badiiy va estetik didning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, ya'ni tasviriy san'at darslarida san'atdagi va borliqdagi go'zallikni ko'rish, tushunish va qadrlay olish hissi takomillashadi. Naturani tahlil qilish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini buyumlar shaklining nafisligi, qismlarning proporsionalligi, shakl va rang uyg'unligi, mazmun, shakl va vazifaning mosligi kabilarga jalb etadi. Natijada, o'quvchilarda naturaga nisbatan emotsional — estetik munosabatlar oshadi. O'quvchilar naqsh chizishda, dekorativ — bezak ishlarida tabiat elementlaridan foydalanadilar. Bunga tabiat mahsulotlari yaxshi material bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar tabiat materiallari va hayvonot dunyosini stilizatsiyalashtirib, takrorlanmas va chiroyli naqshlar tuzadilar. Borliqni idrok etish va kompozitsiya darslarida tabiatni kuzatish va uni rasmlarda aks ettirish bolalar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar dars jarayonida tabiatni kuzatar ekanlar, ular daraxtlarning tuzilishini, shoh-shabalarning shakl va yo'nalishini turli-tumanligi, barglarning rangi va shakli, nafisligi va yoqimligini bilib oladilar. SHuningdek, gullarning rangi va shakli, xilma-xilligi, bahor va kuz manzarasining go'zalligi, ninachi, kapalak, qushlarning yengil va nafis parvozi ham o'quvchilarni hayajonlantiradi. Yuqori badiiy saviyada yaratilgan tasviriy san'at asarlarini o'rganishda o'quvchilar ulardan estetik zavq olishadi. Suvrat kompozitsiyasining muvaffaqiyatli yechilishi, ranglarning hamohangligi, borliqning haqqoniy tasviri bolalarni hayajonlantiradi. Bu faqat estetik tarbiyaga taalluqligina bo'lmay, balki, bolalarning tasviriy ijodiga, ularning san'atga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashga bevosita aloqadordir. Bu borada manzara va natyurmort janrlarining roli kattadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent: SHarq, 1997.
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi kontseptsiyasi.- Toshkent, 1995.
3. Tasviriy san'at. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi.-Toshkent: SHarq, 1999.
4. Azimova B. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi.—Toshkent: O'qituvchi, 1984.
4. Bakushinskiy A.V. Xudojestvennoe tvorchestvo i vospitanie. Issledovanie i statyi.—Moskva: Sov. xudojnik, 1981. 6. Boymetov B. , Tolipov N. Maktabda tasviriy san'at to'garagi. Toshkent, 1995.
5. Bulatov S. Amaliy san'at qisqacha lug'ati.-Toshkent: HBM, 1992.
6. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati.—Toshkent: Mehnat, 1994.
7. Nabiev M. Rangshunoslik.—Toshkent; O'qituvchi, 1995. 10. Nikonorova N.M. Naglyadnye posobiya i oborudovaniya dlya zanyatij izobrazitel'no'm isskustvom.—Moskva: Prosvechenie, 1975.

Для заметок: